

Mukofotlangan yo'lsozlar



O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma to'rt yilligi munosabati bilan Prezident Farmoniga ko'ra "O'zavtoyol" DAK tizimidagi korxonalar va tashkilotlarda mehnat qilayotgan quyidagi yo'lsozlar davlat mukofotlari bilan taqdirlandilar:

"Fidokorona xizmatlari uchun" ordeni bilan

Mukumov Suyarbay Egamberdievich - Jomboy tumani yo'l xo'jaligi pudrat ta'mirlash-foydalanish korxonasi bosh muhandisi, Samarqand viloyati

Nishanov Komiljon Solijonovich - Mingbuloq tumani yo'l xo'jaligi pudrat ta'mirlash-foydalanish korxonasi avtogreyderchisi, Namangan viloyati

"Mehnat shuhrati" ordeni bilan

Abdulahatov Nortoji - Sherobod tumani yo'l xo'jaligi pudrat ta'mirlash-foydalanish korxonasi direktori, Surxondaryo viloyati

"Shuhrat" medali bilan

Davletov Kuvondik Jumaniyazovich - "Xorazmyo'lqurilish" korxonasi avtogreyderchisi, Xorazm viloyati

Djanqaraev Djura Koshaevich - Termiz tumani yo'l xo'jaligi pudrat ta'mirlash-foydalanish korxonasi avtogreyderchisi, Surxondaryo viloyati

Mamadiev Ma'rifjon Maxmudboevich - "Qamchiqavtoyol" ixtisoslashtirilgan yo'llardan foydalanish korxonasi asfalt yotqizish mexanizmi mashinisti, Namangan viloyati

Taqdirlanganlarni chin dildan qutlab, ularning Vatanimiz taraqqiyoti yo'lidagi faoliyatlarida yuksak zafarlar tilaymiz.

"Uzavtoyul" AK Matbuot xizmati